



## SIYOSIY GURUHLAR VA SIYOSIY TASHKILOTLAR

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Psixologiya va sotsiologiya kafedrası*

*sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich*

*talabasi Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi*

*[maxsimovamadina@gmail.com](mailto:maxsimovamadina@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada siyosiy guruhlar, siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan siyosiy tashkilotlar haqida so'z boradi. O'zbekiston a'zoliqi bor bo'lgan siyosiy tashkilotlar va mamlakatimizdagi siyosiy guruhlar faoliyati haqida qisqacha yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar.** Siyosiy, guruhlar, tashkilotlar, BMT(Birlashgan Millatlar Tashkiloti), Yevropa ittifoqi, INTERPOL, NATO, partiyalar, ustav, demokratik.

**Kirish.** Siyosiy guruhlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi turli davrlarda turlicha amalga oshgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish davrida Turkiston mintaqasida turli siyosiy yo'nalishdagi guruhlar shakllandi. 1905-1907 yillarda inqilobiy harakatlar kuchaydi va bu davrda ijtimoiy-siyosiy guruhlar, jumladan, jadidlar harakati paydo bo'ldi. Sovet davrida siyosiy guruhlar SSSR Kompartiyasi doirasida faoliyat yuritgan. Mustaqillikdan so'ng, 1991 yilda O'zbekiston Respublika Prezidenti saylovi bilan yangi siyosiy partiyalar va harakatlar shakllandi. 2020 yilga kelib, O'zbekistonda 5 ta rasmiy siyosiy partiya mavjud bo'lib, ular parlamentda faoliyat yuritmoqda. Siyosiy guruhlar turli masalalar bo'yicha ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechim ishlab chiqishda faol ishtirok etadilar. Ularning faoliyati demokratik jarayonlarni mustahkamlashga yordam beradi.



**Metod va materallar.** Siyosiy tashkilotlarning asosiy vazifasi bu jamiyat va davlat o'rtasida "ko'prik" vazifasini o'tash hisoblanadi. O'zbekistondagi siyosiy guruhlariga siyosiy partiyalarni misol qilib olishimiz mumkin. Siyosiy partiyalar — ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.<sup>1</sup> Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.<sup>2</sup>

Xalqaro siyosiy tashkilotlarga esa Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Yevropa Ittifoqi, INTERPOL kabilarni misol qilib olishimiz mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)- yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.<sup>3</sup> BMTning asosiy vazifasi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashish, millatlar o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorliklarni barqaror etish hamda ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar kelishuvlari uchun markaziy rolni o'ynab beradi.

NATO-Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti 1949-yilda Qo'shma Shtatlar, Kanada va bir qator G'arbiy Yevropa davlatlari tomonidan Sovet Ittifoqiga qarshi kollektiv xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.<sup>4</sup>

Yevropa Ittifoqi(YI)- o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma. YIning asosiy maqsadi

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy\\_partiyalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar)

<sup>2</sup> Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 3-modda

<sup>3</sup> Siyosiy geografiya "Jahonning yirik siyosiy tashkilotlari"

<sup>4</sup> <https://history.state.gov/milestones/1945-1952/nato>



Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo'lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirni kuchaytirish yo'li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish, umumiy boylikni saqlab qolish va ko'paytirishlardan iborat.<sup>5</sup>

INTERPOL- xalqaro jinoiy politsiya tashkilotining barcha tillar uchun qisqartirilgan umumiy nomi. Tashkilotning doimiy qarorgohi Fransiya qilib belgilangan.<sup>6</sup> Bu a'zo mamlakatlar milliy huquqni muhofaza qilish organlarining keng tarqalgan jinoyatchilikka qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishning asosiy maqsadi bo'lgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.<sup>7</sup>

**Mulohaza va natijalar.** Siyosiy guruhlar va tashkilotlar jamiyatning boshqaruv tizimidagi eng muhim bo'g'in bo'lib, ular davlat va xalq o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi. Yuqorida sanab o'tgan siyosiy tashkilotlar faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. BMT ustavida ko'rsatilganidek, u xalqalarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlaarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadi.

**Xulosa.** Siyosiy tashkilotlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ular jamiyatdagi turli qatlamlarning (tadbirkorlar, ishchilar, ziyolilar) o'z manfaatlarini davlat darajasida himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Guruhlar manfaatni shakllantiradi, tashkilotlar (partiyalar) esa uni amalga oshiradi. Kuchli siyosiy tashkilotlar mavjud bo'lgan jamiyatda ziddiyatlar ko'chada emas, balki

<sup>5</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa\\_Ittifoqi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi)

<sup>6</sup> Siyosiy geografiya "Jahonning yirik siyosiy tashkilotlari"

<sup>7</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%BF%D0%BE%D0%BB>



parlamentda, qonuniy bahslar orqali hal etiladi. Bu davlatning inqirozlarga chidamliligini oshiradi va siyosiy tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Siyosiy geografiya “Jahonning yirik siyosiy tashkilotlari”
2. Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni

#### **Axborot manbalari:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy\\_partiyalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar)
2. <https://history.state.gov/milestones/1945-1952/nato>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa\\_Ittifoqi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi)
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%BF%D0%BE%D0%BB>